

SO‘ZLARNING SHAKL VA MA’NO MUNOSABATIGA KO‘RA TURLARI: OMONIM, SINONIM, PARONIM, ANTONIMLAR

To‘lqinova Ruxshona Rustamjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Filologiya fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

2- bosqich 201-guruh talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar. *Leksema, frazeologiya, omonim, sinonim, paronim, antonim, grammatika.*

Абстрактный. *В данной статье представлена информация о типах слов по их форме и значению.*

Ключевые слова. *Лексема, фразеология, омоним, синоним, пароним, антоним, грамматика.*

Abstrakt. *This article provides information about the types of words according to their form and meaning.*

Key words. *Lexema, phraseology, homonym, synonym, paronym, antonym, grammar.*

Leksema — so‘zning gap tarkibidan tashqaridagi grammatik qo‘shimchasiz alohida olingan ko‘rinishi.

So‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari: omonim, sinonim, paronim, antonim.

OMONIMLAR

Omonim—shakli bir xil, ma’nosi har xil bo‘lgan so‘zlar.

Masalan: chang—to‘zon, gard, g‘ubor; cholg‘u asbobi.

Omonimlar ikki turga bo‘linadi:

1. Lug‘aviy omonimlar.
2. Grammatik omonimlar.

Lug‘aviy omonimlar:

a)leksik omonimlar;

b) frazeologik omonimlar;

a)omonimlik hodisasi so‘z bilan so‘z doirasida bo‘lsa, leksik omonim deyiladi.

Masalan: kul(ot)— tandirdagi kul, kul(fe‘l)—kulmoq.

b) Omonimlik hodisasi ibora bilan ibora doirasida bo‘lsa, frazeologik omonimlar deyiladi.

Masalan: ko‘z yummoq–vafot etmoq; e‘tiborsizlik qilmoq.

Grammatik omonimlar qo‘shimchalar doirasidagi shakliy tenglikdir. Shakli bir xil ma‘nosi har xil qo‘shimchalarga grammatik omonimlar deyiladi. Masalan: –im qo‘shimchasi bilim– ot yasovchi qo‘shimcha, fe‘ldan ot yasaydi. kitobim–1-shaxs birlik egalik qo‘shimchasi.

Omonimlar shakl jihatidan bir xil bo‘lishiga ko‘ra ko‘p ma‘noli (polisemantik) so‘zlarga o‘xshaydi. Ko‘p ma‘noli so‘z bir so‘zning o‘z va ko‘chma ma‘nosiga asoslanadi. Ko‘p ma‘noli so‘z bir so‘z turkum doirasida bo‘ladi. Omonimlar bir so‘z turkum doirasida ham turli so‘z turkum doirasida ham bo‘lishi mumkin.

M: Odamning yuzi–sinfning yuzi—ko‘p ma‘noli so‘z

Odamdagi yuz–yuz raqami— omonim

Omonimlar bir yoki bir necha so‘z turkum doirasida yuzaga kelishi mumkin:

a) bir turkum doirasida: son, rasm, qovoq, bog‘, suz.

b) ikki turkum doirasida: tut, sol, ol, tur, soch, qur.

c) uch turkum doirasida: tom, hur, tik, oshiq.

Shar omonimlik bir so‘z turkum doirasida bo‘lsa, grammatik shakllar qo‘shilsa ham, omonimlik saqlanib qoladi. Omonimlik bir necha turkum doirasida bo‘lsa, grammatik shakllar qo‘shilsa, omonimlik yo‘qoladi.

SINONIMLAR

Ma‘nodoshlik (sinonimiya)—aytilishi va yozilishi har xil, ammo ma‘nosi bir xil yoki bir biriga yaqin bo‘lgan so‘zlar. M: un, sas, ovoz, tovush, nido.

Ma‘nodoshlik munosabati bir so‘z turkum doirasida bo‘ladi. M: ulug‘, buyuk, katta, gigant, ulkan—sifat.

Ma‘nodoshlik so‘z, ibora, qo‘shimchalarda mavjud. Shubha ko‘ra ma‘nodoshlik quyidagi guruhlariga bo‘linadi:

1) Lug‘aviy (leksik) ma‘nodoshlik, ya‘ni so‘z ma‘nodoshligi: ish, yumush.

2) ibora (frazologik) ma‘nodoshligi: boshi osmonga yetdi, terisiga sig‘madi.

3) qo‘shimcha ma‘nodoshligi: ser-, -dor; -siz, be-

Ma‘nodosh so‘zlar to‘plami va ularning bir qatordagi tuzilishi sinonimik qator deyiladi. Sinonimik qatordagi ma‘lum aniqlikka ega bo‘lgan, uslubiy jihatdan betaraf so‘z bosh so‘z (dominanta) deyiladi.

M: yurak, ko‘ngil, qalb, dil qarorida bosh so‘z–yurak.

Bosh so‘z quyidagi xususiyatlarga ega:

a) boshqalariga nisbatan ko‘p ishlatiladi;

b) uslub tanlamaydi;

d) boshqasini erkin almashtiradi;

e) hissiy bilasizu bo‘ladi;

ANTONIMLAR

Bir-biriga zid ma'no ifoda etuvchi til birliklariga antonim deyiladi. Antonim so'zi grekcha "zid ma'no" degan ma'noni bildiradi. Antonim faqat bir so'z turkumida bo'ladi.

Antonimlar faqat bir so'z turkum bo'ladi.

M: yaxshi-yomon, keng-tor — antonim

Yomon odatlarni tashlagin, do'stim,

Yaxshilik insondan qoladigan meros.

Antonimlik yo'q. Yomon-sifat, yaxshilik-ot.

Antonimlarning quyidagi turlari mavjud: lug'aviy antonimlar, frazeologik antonimlar va affiksial antonimlar.

Lug'aviy antonimlar:

1)so'zlar doirasida;

2)so'z va iboralar doirasida;

3)iboralar doirasida;

1)so'zlar doirasidagi antonimik munosabatga leksik antonimlar deyiladi.

M: boy-kambag'al, vafo-jafo;

2)so'zlar va iboralar doirasidagi antonimik munosabatga leksik-frazeologik antonimlar deyiladi. Masalan: ziqna(so'z)—fe'li keng(ibora);

3) Antonimik munosabatda bo'lgan iboralarga frazeologik antonimlar deyiladi. Masalan: yerga urmoq—ko'kka ko'tarmoq.

Affiksial antonimlar antonimik munosabatda bo'lgan qo'shimchalardir. Masalan: -siz, no-, ser-, bo-qo'shimchalari -siz, no-, -be ga antonim.

Inkor yoki fe'lning bo'lishli-bo'lishsizlik shakli ham antonimlik hosil qila olmaydi. M: o'qidi va o'qimadi fe'llari o'zaro antonim emas.

PARONIMLAR

Paronim—talaffuzi bir-biriga juda yaqin, ammo yozilishi va ma'nosi har xil bo'lgan so'z. M: asir va asr; afzal va abzal;

Har qanday bir tovush bilan farqlanadigan so'zlar paronim bo'lavermaydi. Ular talaffuzda chalkashlik yuzaga keltirishi kerak. M: vafo jafo so'zlari paronim emas.

Paronimlar ba'zan birdan ortiq tovush bilan farqlanishi mumkin. M: sayil-sayir, ramz-razm. Paronimni ikki yozilishi kerak bo'lgan, ammo ma'nosi bir xil bo'lgan suvlardan farqlash kerak: arava-aroba, bekik-berkik, benihoya-benihoyat.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari o'zbek tilida juda katta ahamiyatga ega, har birining o'z o'rnini bor. Ularga o'rganish va tahlil qilish soha vakillari uchun zarur hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: oliy o‘quv yurtlari uchun darslik/H. Jamolxonov . - To.<<Talqin>>, 2005
2. D. Sotiboldiyeva „Leksikologiya" o‘quv qo‘llanma.
3. M. Arabboyeva . „Ona tili darslari milliy dastur talablari asosida tashkil etish dolzarb pedagogik muammo sifatida" maqolasi/ Namanganda davlat universitetining ilmiy axborotnomasi, 2023 Nō 7, 718-725.
4. To‘lanova, M., & Sotvoldiyev, D. (2023). "BOBURNOMA"DA O‘SIMLIK VA HAYVONOT OLAMI TASVIRI. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(31)
5. To‘lanova, M. (2024). "O‘ZBEK VA RUS TILLARIDAGI MAQOLLARNING ETNOMADANIY XUSUSIYATLARI". Interpretation and Researches, 1(23)